



INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY DISKURSIDA DO‘STLIK VA SADOQAT KONSEPTI:
LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV



To‘lqinova Mahfuza Abdurauf qizi

*Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili),
201-guruh talabasi, Oriental universiteti, Toshkent*

Saidova Maxsudaxon Abbasovna

Katta o‘qituvchi, Oriental universiteti, Toshkent

ABSTRACT. This article examines the concept of friendship and loyalty in English and Uzbek novels from a linguocultural perspective. Friendship is analyzed as a cultural and pragmatic phenomenon reflected through literary discourse, character interaction, and value-oriented narratives. The comparative analysis reveals that although friendship represents a universal human value, its pragmatic functions, cultural meanings, and narrative realizations differ according to national traditions and literary worldviews. The study highlights how friendship functions as a marker of moral orientation and cultural identity within English and Uzbek literary discourse.

Keywords: friendship, loyalty, literary discourse, linguoculturology, English literature, Uzbek literature, cultural values, pragmatics.

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek romanlarida do‘stlik va sadoqat konsepti lingvokulturologik hamda pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Do‘stlik badiiy diskursda milliy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim semantik birlik sifatida talqin etiladi. Qiyosiy tahlil natijalari do‘stlik umuminsoniy qadriyat bo‘lishiga qaramay, uning mazmuniy qatlamlari va pragmatik vazifalari ingliz va o‘zbek adabiy an‘analarida turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: do‘stlik, sadoqat, badiiy diskurs, lingvokulturologiya, pragmatika, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, milliy qadriyatlar.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается концепт дружбы и верности в английских и узбекских романах с лингвокультурологической и прагматической точки зрения. Дружба анализируется как культурно значимое явление, отражающее национальные ценности и модели социального взаимодействия в художественном дискурсе. Сравнительный анализ показывает, что при универсальности ценности дружбы её смысловое наполнение и прагматические функции различаются в зависимости от культурной традиции и литературного контекста.

Ключевые слова: дружба, верность, художественный дискурс, лингвокультурология, прагматика, английская литература, узбекская литература.

KIRISH. Do‘stlik tushunchasi ingliz va o‘zbek adabiyotida nafaqat shaxsiy munosabat shakli, balki madaniy va axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi muhim lingvokulturologik konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy diskursda do‘stlik insonlararo munosabatlarning pragmatik mazmunini ochib berish, qahramonlarning axloqiy pozitsiyasini belgilash va milliy tafakkurni aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ingliz adabiyotida do‘stlik ko‘pincha individual tanlov va



shaxsiy mas'uliyat bilan bog'liq holda talqin etilsa, o'zbek adabiyotida u jamoaviylik, sadoqat va ma'naviy tayanch tushunchalari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Ushbu farqlarni lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilish do'stlik konseptining madaniy va pragmatik qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Do'stlik ingliz va o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadigan asosiy insoniy qadriyatlardan biridir. Ushbu an'anaga oid badiiy asarlarda do'stlikka bo'lgan turli madaniy munosabatlar, jumladan, sadoqat, ishonch va axloqiy mas'uliyat kabi hislatlar aks ettiriladi. Ingliz adabiyoti ko'pincha do'stlikni insonning shaxsiy tanlovi va hissiy yaqinlik natijasi sifatida taqdim etsa, o'zbek adabiyoti uning axloqiy va jamoaviy ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlarning qiyosiy tahlili do'stlikning ham umumiy, ham madaniy talqinlarini ochib berishga yordam beradi.

Do'stlik ingliz adabiyotida keng uchraydigan mavzu bo'lib, turli janrlar, uslublar va davrlar orqali talqin etiladi. Ingliz adabiyotida do'stlikning ayrim xususiyatlari takroran ta'kidlanganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Xayrixohlik do'stlikning eng asosiy tamoyili bo'lib xizmat qiladi. Sababi, ingliz asarlarida aksariyat hollarda do'stlik erkin tanlangan munosabat bo'lib, shaxsiy mustaqillikning madaniy ideallarini aks ettiradi. Do'stlar bir-birlariga axloqiy ko'zgu belgisi sifatida ham talqin etiladi. Ular o'zlarining fazilatlarini, hislatlarini va shu bilan birga, nuqsonlarini o'zaro aks ettiradilar. Bu esa, qahramonlardagi axloqiy uyg'onish yoki tanazzulni keltirib chiqaradi. Romanlar va dramalarda do'stlik ko'pincha faqatgina syujet vositasi sifatida emas, balki qahramonning ichki o'sishi va axloqiy qarorlari uchun tarkibiy qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Ingliz adabiyotida do'stlik shunchaki orqa fon elementi emas, balki axloqiy qadriyatlar, xarakter va madaniy ideallarni ochib beruvchi dinamik axloqiy va ijtimoiy munosabatdir. Ingliz madaniyati tarixan shaxsiy tanlov, shaxsiy sadoqat va axloqiy yaxlitlikni qadrlagan sababli, adabiy do'stlik ko'pincha shaxsiy mustaqillik va o'zaro axloqiy majburiyat o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Bu mavzu o'rta asr romanchiligidan tortib roman, drama va zamonaviy badiiy adabiyotgacha bo'lgan janrlarda namoyon bo'lib, ularning har biri do'stlik munosabatlarini o'zining tarixiy va estetik sharh asosida shakllantiradi. Ingliz madaniyatida adabiyot ko'pincha individualizm va jamoa o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi, bu esa do'stlik tasavvurlarini yanada kuchaytiradi. Erkinlik va shaxsiy ovoz do'stlarni nafaqat hamroh, balki ijod uchun ilhomlantiruvchiga aylantirdi. Masalan, Uilyam Vordsvort va Semyuel Teylor Kolrij o'rtasidagi do'stlik romantizm estetikasining paydo bo'lishiga chuqur ta'sir ko'rsatdi, ularda ijodiy hamkorlik va umumiy she'riy g'oyalarga urg'u berilgan.

Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" romanida do'stlikda qilingan tanlov qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi yaqqol aks etgan. Asarda muhim ro'l o'ynagan odob-axloq hamda buzuqlik masalalari Dorian Grey va uning qalin do'sti lord Genrining o'zaro munosabatlari orqali namoyon etilgan. Garchi do'stlik asarning asosiy masalalaridan biri bo'lmasada, voqea rivoji, qahramonlarning o'sishi va boshqa masalalarni yoritib berishda asosiy unsur bo'lib xizmat qilgan.

Umuman olganda, Oskar Uayld do'stlikni inson xatti-harakati va xarakterini shakllantirishda markaziy kuch sifatida taqdim etgan. Ushbu munosabat orqali muallif xavfli bo'lgan g'oyalarning o'zigina qanday qilib insonga kuchli ta'sir ko'rsata olishi va hayotni qay tarzda burib yuborishini tadqiq etadi. Lord Genri Dorianning hayot tarzi, fikri va mafkurasiga



ko'rsatgan ta'sirining javobgarligini o'z bo'yniga olmaydi. Dorian uchun axloqiy va ma'naviy ma'noda do'st emas, balki unga nisbatan qiziqarli mashg'ulot munosabatida bo'ladi. Bu do'stlikning namunasi g'amxo'rlik va sof niyat tushunchalaridan yiroq bo'lib, o'yin-kulgiga asoslangan yuzaki munosabatlar insonning axloqiy tanazzulga olib borishini ifodalaydi.

Do'stlik va unga saqodat mavzusi o'zbek adabiyotida turli rivoyat va hikoyalarda keng yoritilib kelingan. Do'st tushunchasi o'zbek kishilarining tafakkurida ikki inson o'rtasidagi ahillik, inoqlik va yaqinlik ma'nolarini ifodalab keladi. Erkin Vohidovning "Do'st bilan obod uying" she'ridagi dastlabki satrlarni ko'rib chiqaylik: "Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham. Do'st qadam qo'ymas esa, vayronadir koshona ham". O'zbek xalqi uchun do'stlikning ahamiyati shunchalar kattaki, uning hamrohligi bilan inson uyi obod va ko'rkam bo'lishi ta'kidlanmoqda. "Uy" so'zi nafaqat jismoniy makon, balki insonning ichki kechinmalari, halovati va ruhiy holatini ham ifoda etmoqda. Kishining do'stlari bo'lmasligi uning ichki holatini va qalbini "vayrona" ga qiyoslamogda. Do'st konseptini biz yana tarafdor va homiy sifatida talqin etishimiz mumkin. Bunga Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi ushbu parcha misol bo'la oladi: "Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo'lsa, tinchlikcha qo'shindan chiqib ketsin!" Qodiriy ushbu epizod orqali shunki ko'rsatadiki, soxta do'stlik va manfaatparast tarafdorlik jamiyatni parokandalikka olib boradi. Musulmonqulning atrofidagi odamlar unga sodiq kishikar emas, ular o'z manfaatlarini ko'ra olganda taraf o'zgartiradigan odamlardir. Bu esa do'stlik niqobi ostidagi xiyonatni fosh etadi.

Asarda Otabek va Hasanali qahramonlarining orasidagi munosabat alohida o'rin tutadi. Otabekning quli bo'lgan Hasanali nafaqat xizmatchi, balki oila a'zosiga aylanib ulgurgan kishidir. Otabek uni "ma'naviy ota" sifatida xurmat qiladi va uning maslahatlariga suyanadi. Hasanali Otabekning kayfiyatidagi o'zgarishlarini payqashi, uni har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlashi va xuddi o'z farzandidek suyishi ularning orasida bo'lgan sadoqatni ko'rstadi. Ushbu munosabat dastlab manfaat, ya'ni xo'jayin-xizmatchi o'rtasidagi rishta singari ko'rinsa-da; halollik, iymon, adolat va vijdon tuyg'ulari ushbu munosabatni do'stlik darajasigacha olib chiqadi. Shuningdek, Hasanalining vazifasi bo'ysunish va xizmatdan iboratgina emas. U Otabekka o'z fikrini ochiq aytishga jur'at etadi va hatto uni noto'g'ri yo'llardan qaytarish uchun pand-nasihat qiladi.

XULOSA. Ingliz va o'zbek badiiy diskursida do'stlik va sadoqat konsepti umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo'lsa-da, uning lingvokulturologik va pragmatik talqini milliy madaniyatga bog'liq holda shakllanadi. Ingliz adabiyotida do'stlik individual axloqiy tanlov va shaxsiy o'sish omili sifatida talqin etilsa, o'zbek adabiyotida u ijtimoiy mas'uliyat, sadoqat va ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi. Har ikki adabiy an'anada do'stlik obrazlari qahramonlarning axloqiy qiyofasini ochib beruvchi muhim diskursiv vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, do'stlik badiiy matnda nafaqat hissiy munosabat, balki madaniy identitet va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eagleton T. *Literary Theory: An Introduction*. – Oxford: Blackwell Publishing, 1996. — pp. 102–104.



2. Карасик В. И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Москва: Гнозис, 2002. — сс. 91–93.
3. Eagleton T. *Literary Theory: An Introduction*. – Oxford: Blackwell Publishing, 1996. — pp. 145–147.
4. McEnery, T., & Hardie, A. *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge University Press, 2012. — P.60.
5. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use*. Cambridge University Press, 1998. — P.107.
6. Wilde O. *The Picture of Dorian Gray*. – London: Penguin Classics, 2003. — pp. 58–61.
7. Yo‘ldoshev B. *Badiiy matn va milliy tafakkur*. – Toshkent: Fan, 2018. — bb. 72–74.
8. Baker, M. *Translation and Conflict: A Narrative Account*. Routledge, 2006. — P. 21.
9. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019. — bb. 134–136.